

“Mustaqillik kubogi”: stol tennisi bo'yicha g'oliblar aniqlandi

// 17 August 2026 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/mustaqillik-kubogi-stol-tennisi-bo-yicha-g-oliblar-aniqlandi>



O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan “O'zkimyosanoat” AJ tomonidan tarmoq korxonalari o'rtasida tashkil etilgan “Mustaqillik kubogi” musobaqalarining stol tennisi sport turi bo'yicha bahslar tashkil etildi.



**Musobaqaning erkaklar o'rtasidagi bahslarida
1-o'rinni "Farg'onaazot" AJ vakili Valixonov Ikromxon,
2-o'rinni "Maxam-Chirchiq" vakili Kudaykulov Ablayxan,
3-o'rinni "O'zkimyosanoat" AJ vakili Muxtorov Rahimjon egalladi.**



Ayollar o'rtasida esa

“Navoiyazot” vakili Achilova Nozima - 1-o'rin,

“Ammofos” vakili Amanova Nargiza - 2-o'rin,

“Maxam-Chirchiq” vakili Galiullina Liliya 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

“Mustaqillik kubogi” doirasidagi sport musobaqalari tarmoq korxonalari xodimlari o'rtasida sog'lom raqobat, jamoaviylik va do'stona muhitni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

